

MOVOROUNNAHR MUSULMONLAR IDORASINING 1993-1996-YILLARDAGI FAOLIYATI: MUHIM VOQELIKLAR, O'ZGARISHLAR VA YANGI DAVR

Sotvoldiyev Farrux

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,

“Islom tarixi va manbasunosligi IRCICA” kafedrasi, 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15522208>

Annotatsiya. 1993-yilda Movarounnahr musulmonlari idorasi tizimida muhim o'zgarish-muftiy, shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning iste'foga chiqishi va uning o'rniga yangi muftiy tayinlanishi yuz berdi. Ushbu voqea idora tarixidagi muhim bosqich bo'lib bo'lib, 1996-yilgacha bo'lgan davr, hozirgi O'zbekiston musulmonlari idorasi tizimining shakllanishida so'ngi bosqich hisoblanadi. Mazkur maqolada bu davrda yuz bergan muhim voqealar, tarixiy hodisalar va ularning tahlili haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Qayta qurish, muftiy, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, muxolifat, Robitayi olamil islomiy, Din ishlari bo'yicha qo'mita, Konstitutsiya, imom-xatib, o'rta maxsus bilim yurti

THE ACTIVITIES OF THE MOVAROUNNAHR MUSLIM BOARD IN 1993–1996: KEY EVENTS, CHANGES, AND A NEW ERA

Abstract. In 1993, a significant change occurred within the Movarounnahr Muslim Board system with the resignation of the Mufti, Shaykh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, and the appointment of a new Mufti in his place. This event marked an important milestone in the history of the institution. The period until 1996 is considered the final phase in the formation of the current structure of the Muslim Board of Uzbekistan. This article discusses the key events, historical occurrences, and provides an analysis of the developments that took place during this era.

Keywords: Perestroika, Mufti, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, opposition, Rabita al-Alam al-Islami, Committee on Religious Affairs, Constitution, imam-khatib, specialized secondary educational institution

1989-1991-yillarda Sovet ittifoqida “Qayta qurish” siyosatining so'ngi davrlari, M.Garbachyov hukumatining qulashi, GKCHPning 3 kunlik hokimiyati va Ittifoq parchalanishi kabi yirik voqealar bo'lib o'tdi. Bu vaqtga kelib Sobiq Ittifoq hududida ancha ochiqlik, diniy erkinliklarga nisbatan avvalgidan ancha iliqroq munosabat ko'rsatilayotgan edi. Mamlakatda dini va mafkurasini eng ko'p tiklash harakatida bo'lganlar bu musulmonlar edi. Markaziy Osiyo respublikalarida ayniqsa O'zbekiston bu yaqqol ko'rindi. Yangi saylangan muftiy shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning faolligi ostida sovet musulmonlarining haj ziyoratiga borishiga yo'l ochilishi, diniy boshqarmaning moddiy texnik bazasi ortishi, nashriyot-matbasining kuchayishi, xalqaro aloqalar kengayishi kabilar haqida avvalroq ma'lumotlar berib o'tildi. Mustaqil O'zbekistonda Movarounnahr musulmonlari idorasi muftiysi sifatida umumiy 4 yildan buyon faoliyat olib borayotgan shayx 1993-yilga kelib iste'foga chiqdi. Bunga shaxsiy motivlar bo'lgan deysada, o'sha davr taqozosi muftiyga nisbatan muxolifat kayfiyatidagilarning ko'payganligi, uning diniy boshqarma va musulmon aholisi uchun qilgan ishlariga qarshi bo'lganlar borligi ham haqiqat edi.

Shayx Muhammad Sodiq muftiylikdan bo'shagach Saudiya Arabistoniga jo'nab ketdi. U yerda "Robitayi Olamil Islomiy" tashkilotida sobiq ittifoq davlatlarining vakili sifatida faoliyat yuritdi.¹

1992-yilda respublikamizda diniy sohani tartibga solish ishlari davom etayotgan edi. Yuz bergan eng muhim voqealardan biri Din ishlari bo'yicha qo'mitaning tashkil etilishi bo'ldi.

Ushbu tashkilot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 7-mart kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitani tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga² muvofiq Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etilgan. Endilikda hukumat diniy tashkilotlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish tartibga solish masalalarini bir tashkilot vakolatiga bergan edi.

Shuningdek ushbu qo'mita o'z faoliyatida Konstitutiya va qonunlar, yuqori tashkilotlar tashkilotlar farmoyishlari va o'zi uchun ishlab chiqilgan Nizomiga amal qilishi belgilandi.

Qo'mita mahalliy hokimiyat organlari va boshqa boshqaruv tashkilotlari, jamoat birlashmalariga o'xshash boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda ishlashi zarurligi ham qonunda mustahkamlandi.³

1993-yilda bo'shab qolgan muftiylik o'rniga Bahouddin Naqshband masjidi imom xatibi bo'lib ishlab kelayotgan Muxtorjon Abdullayev (1928-2002) tayinlandi. U kishi xalq orasida Muxtorjon Domlo nomi bilan tanilgan, ilmi juda kuchli inson hisoblangan. Chunonchi uning o'zi taqvodor ilm peshvosi Turdiali qorining farzandi bo'lib, XX asr 50-yillarida Mir Arab va Baroqxon madrasalarini tugatgan. Muftiy Ziyovuddin Eshon Boboxonning tashabbusi talabalarning chet elga o'qishga yuborish yo'lga qo'yilgan vaqtlarda, Suriyada Damashq universitetining shariat fakultetida tahsil olgan. O'qishni bitirgach vataniga qaytib 1991-yilgacha Mir Arab madrasasida mudarris va mudir bo'lib ishlaydi. U kishining arab, fors-tojik, rus tillarini bilishi chet eldan kelgan talabalar uchun qulaylik bergan.⁴ Shuningdek mashhur din va davlat arboblardan shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, marhum muftiy Usmonxon hoji Alimov, shayx Abdulaziz Mansur, rossiyalik muftiylar Tal'at Tojiddin, Ravil G'aynuddin, Ozarbayjon shayxul islomi Allohshukur Poshshozoda, rossiyalik mashhur din va jamoat arbobi Umar Idrisov, marhum Checheniston muftiysi va birinchi prezidenti Ahmad Qodirov ham uning qo'lida tahsil olishgan.

1992-yil 28-oktyabrda imzolangan Vazirlar Mahkamasining qarorida⁵:

- Ko'plab ulamolarning iltimosiga ko'ra tasavvuf ilmining buyuk vakili Bahouddin Naqshbandiy tavalluding 675 yilligini 1993-yilga kelib nishonlash;
- Buxoro shahrida mas'ul tashkilotlar bilan birga allomaning yubileyi uchun anjuman o'tkazish;
- Shu yilning sentabr oyida konferensiya tashkil etish;

¹ Muhammad Amin Muhammad Yusuf. "Islomga bag'ishlangan umr", "Hilol" nashriyoti. 2022. 74-B

² O'zbekiston respublikasi prezidentining PF-354-son qarori / O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 5-son, 219-modda / <https://lex.uz/docs/-165464>

³ O'zbekiston Respublikasi hukumat portal — <https://gov.uz/oz/religions/pages/about>

⁴ Azizxo'ja Xayrulloh o'g'li. "Zulmatdagi ziyokorlar". "Hilol Nashr" nashriyoti. 2016. 66-67-B

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 28-oktabrdagi 497-son qarori / <https://www.lex.uz/docs/-508432>

- Monografiyalar chiqarish hamda naqshbandiya ta'limotiga oid adabiyotlarni tarjima qilish;

- Buxoro shahri va Qasri Orifon qishlog'ida allomaning xotirasini abadiylashtirish;

Bu ishlar uchun Vazirlar mahkamasi zaxira jamg'armasidan 25 million so'm ajratish belgilandi. Ushbu qarorning imzolashida Muxtorjon Abdullayevning katta faolligi ham bor edi.

Muxtorjon Abdullayev muftiyligining dastlabki davrida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risidagi qonunga ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. 1993-yil 3-sentabrda kuchga kirgan yangi qonunning 8-moddasiga quyidagicha o'zgartirish kiritilgan:

"Diniy jamoalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Diniy ishlar qo'mitasi bilan kelishilgan holda ro'yxatga olinadilar".⁶

Endilikda Din ishlari bo'yicha qo'mitaning vakolatlari yanada kengayib vazifalari ortgan edi. Chunonchi diniy tashkilotlar va jamoalarning davlat tomonidan ro'yhatga olinishida qo'mitaning bevosita ishtiroki majburiy qilib qo'yildi.

Bu kabi o'zgarishlarning o'ziga yarasha sabab va shart sharoitlari bor edi. Masalan, 90-yillar birinchi yarmida hukumat tomonidan diniy sohaga berilgan imtiyozlarni suiste'mol qiluvchilar ko'paydi. Ya'ni davlat ro'yhatidan o'tmagan diniy muassasalarning haddan ortiq ko'payib ketgani havotir uyg'otardi. Mustaqillikka erishilgan paytda 90taga ham yetmagan masjidlar soni 5000 tagacha yetdi. Har bir mahallada ochilayotgan masjidlarning aksariyat qismida hujjatlari to'liq yoki umuman rasmiylashtirilmagan, malakali imomlar bilan ta'minlanmagan edi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra bu imomlarning 90%dan ortig'i diniy ma'lumotsiz deb baholangan. Shuningdek masjidlarning ko'pchiligi zarur sharoitlar ham yaratilmagan holatda ochilavergan va faoliyat yurgizgan.⁷ Ayrim diniy tashkilotlarga yo'l boshchilik qilayotganlar aslida xorijiy davlat fuqarolari hisoblanib, rasmiy diniy ma'lumotga ega bo'lmay turib, turli tashqi moliyaviy ko'maklar yordamida respublikamiz hududida yot g'oyalarga oid missionerlik faoliyati bilan shuq'ullangan holatlar uchray boshladi. Asosiy maqsadi o'z saflarini mahalliy aholi vakillari hisobiga yanada kengaytirish edi.

Albatta musulmon aholisining norasmiy bo'lsada diniy tashkilotlarni ko'paytirishiga sabablar bor edi. Muxtorjon Abdullayev muftiylig davrida diniy sohada kadrlarning o'tkir yetishmovchiligi davom etardi. Diniy ta'lim olishni xohlovchilar, islomga oid, kundalik hayotdagi diniy masalalarda savolga egalar, fatvo so'raguvchilar uchun rasmiy diniy ma'lumotga ega imomlar, mudarrislar, ulamolar kamlik qilardi. Diniy boshqarma tasarrufidagi o'rta maxsus islom bilim yurtlari soni kengayib borayotgan bo'lsada kadrlarning keyingi avlodi yetishib chiqishi vaqt talab etardi. Shu sababli avvalgi va keyingi muftiylarning ko'p tashabbus ko'rsatgan masalasi chet el rasmiy diniy oliygohlariga talabalarni jo'natish bo'lgan.

1992-yil eng ko'p diniy ta'lim muassasalari ochilgan vaqt bo'lgan. Ushbu vaqtda ochilgan muassasalardan quyidagilarni sanash mumkin:

⁶ "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida 934-XII-son qonuni / O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 334-modda / <https://lex.uz/uz/docs/-113988>

⁷ Hamidov H., Hakimova M., Mamadaminova B. "Dinshunoslik fanidan o'quv qo'llanma" Toshkent irrigatsiya instituti, 2019. 21-22-B

- “Jo‘ybori Kalon” ayol-qizlar o‘rta maxsus bilim yurti
- Buxoro shahrida faoliyat yuritadi. 1671-1929-yillardagi faoliyatidan so‘ng qayta tiklangan
- “Xo‘ja Buxoriy” o‘rta maxsus islom bilim yurti
- Said Ahmad Vali Kulohdo‘z Xoja Buxoriyning nomi berilgan. Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanida joylashgan
- “Sayyid Muhiyiddin Maxdum” o‘rta maxsus islom bilim yurti
- Andijon viloyati Oltinko‘l tumanida faoliyat yuritadi. Dastlab hali bitmagan binoda ochilgan, keyinchalik zamonaviy 3 qavatli o‘quv binosiga ega bo‘ldi.
- “Imom Faxriddin ar Roziy” o‘rta maxsus islom bilim yurti
- Xorazm viloyati Urganch shahrida joylashgan. Eronlik mashxur alloma sharafiga nomlangan

Muftiy Muxtorjon Abdullayev davrida ham tabiiyki turli idora va musulmonlar nomiga turli xayr-ehsonlar, hadyalar kelib turardi. Muftiy ularning jo‘natgan egalari kimligidan xabardor bo‘lsa ularga mimmatdorchilik xatlari yuborgan vaqtlari ko‘p kuzatilgan.

1994-yilda O‘zbekiston prezidentining Misr Arab respublikasiga rasmiy tashrifi hay‘ati a‘zolari orasida muftiy ham bor edi. O‘sha vaqtda Misr prezidenti bo‘lgan Husni Muborak ushbu rasmiy tashrifni uyushtirgan edi.

1995-yilda muftiy Rossiya Federatsiyasi poytaxti Moskvaga norasmiy tashrif bilan boradi. Sababi bu yerdagi o‘zining eski shogirdlari bilan uchrashish edi. Ulardan e‘tiborlilari Rossiya muftiylar Kengashi raisi Ravil Gaynuddin, Moskvadagi Istoricheskaya masjidining imom-xatibi Mahmud Velitovlar edi. Safar vaqtida Moskvadagi jome‘ masjidda muftiy tomonida ma‘viza o‘qib berilgan. Unda O‘zbekiston va qo‘shni respublikalardan borib mehnat muxojiri bo‘lib yurganlar ham qatnashgan. Muftiy ularning mehnati halol ekanini ta‘kidlab, o‘z xalqini boquvchilari ekanini keltirib o‘tgan.

1996-yilga kelib Movarounnahr musulmonlari idorasi, hozirgi nom O‘zbekiston musulmonlari idorasiga o‘zgartirildi. Muftiy Muxtorjon Abdullayev ushbu lavozimda yana bir yil ishladi. 1997-yilda o‘z xohishiga ko‘ra muftiylikdan iste‘foga chiqdi va avvalgi manzili Bahouddin Naqshband masjidi imomligiga qaytdi.⁸ U kishi bu yerda to vafotiga qadar ishladi.

Shunday qilib musulmonlar idorasi tizimida yana bir bosqich tugab hozirgi davrda davom etib kelayotgan tizim shakllanishi nihoyasiga yetdi.

REFERENCES

1. Muhammad Amin Muhammad Yusuf. “Islomga bag‘ishlangan umr”, “Hilol” nashriyoti. 2022.
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining PF-354-son qarori / O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 5-son, 219-modda / <https://lex.uz/docs/-165464>
3. O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali — <https://gov.uz/oz/religions/pages/about>
4. Azizxo‘ja Xayrulloh o‘g‘li. “Zulmatdagi ziyokorlar”. “Hilol Nashr” nashriyoti. 2016.

⁸ Azizxo‘ja Xayrulloh o‘g‘li. “Zulmatdagi ziyokorlar”. “Hilol Nashr” nashriyoti. 67-B

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 28-oktabrdagi 497-son qarori / <https://www.lex.uz/docs/-508432>
6. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida 934-XII-son qonuni / O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 334-modda / <https://lex.uz/uz/docs/-113988>
7. Hamidov H., Hakimova M., Mamadaminova B. “Dinshunoslik fanidan o‘quv qo‘llanma” Toshkent irrigatsiya instituti, 2019.